O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 18 - iyul 149-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 790-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 7 iyuldagi 304-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek Toshkent tumani Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimining tarkibi va faoliyat ko‘rsatish tartibini belgilash maqsadida, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori hamda shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 7 iyuldagi 304-10-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

Bo‘limlar, tashkilotlar va boshqa muassasalarning Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Shahar va tumanlar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Toshkent tumani Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimi xizmatlari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi.

4. Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha bo‘limlari, tashkilotlar, muassasalar, mahalla fuqarolar yig‘inlari, FVDT tarkibidagi boshqa tashkilotlar bir oy muddatda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining tegishli funksional va hududiy quyi tizimlari to‘g‘risidagi nizomlarni qayta ko‘rib chiqsinlar (ishlab chiqsinlar) hamda viloyat Favqulodda vaziyatlar bo‘limi bilan kelishgan holda tasdiqlasinlar.

5. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi F.Soatov:

bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-apreldagi 171-sonli qarorining mazmun-mohiyati, qarorga asosan amalga oshiriladigan ishlar tegishli tashkilotlarga va jamoatchilikka yetkazilsin;

uch oy muddatda tumanda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday holatlarda harakat qilish bo‘yicha amaldagi hujjatlar mazkur qarorga muvofiqlashtirilsin;

mazkur qaror va nizom talablaridan kelib chiqqan holda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha hamkorlikdagi rejalar, yo‘riqnomalar qayta ko‘rib chiqilsin;

qarorda belgilangan tadbirlarning ijrosi nazoratga olinsin hamda tuman FVDTning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi muvofiqlashtirib borilsin.

6 Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Toshkent viloyati hokimining 2020-yil 4-sentabrdagi 389-sonli qarori va shu asosda qabul qilinga

Toshkent tumani hokimining qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov hamda tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i F.Soatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 18-iyuldagi
149-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish

va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy

quyi tizimi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimining (keyingi o‘rinlarda – FVDT) tarkibini, asosiy maqsadi va vazifalarini, tashkiliy-funksional tuzilmasini hamda faoliyat ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. FVDTning tarkibi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan boshqarma, tashkilotlar, muassasalar, shuningdek, tumanlar, shaharlar hokimliklari hamda tashkilotlarning boshqaruv organlari, kuchlari va vositalaridan iborat.

3. FVDTga kiruvchi boshqarmalar va tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig‘i, Favqulodda vaziyatlar vazirining buyruqlari, ko‘rsatmalari va ushbu Nizom asosida olib boradi.

4. O‘zbekiston Respublikasining, shuningdek Toshkent viloyatining xalqaro shartnomalarida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

6. Tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o‘rinlarda – favqulodda vaziyatlar) – muayyan hududda odamlar qurbon bo‘lishiga, odamlarning sog‘lig‘iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

7. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda o‘tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog‘ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka hamda xavfli omillar

ta’sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar majmui;

8. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

9. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o‘tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda esa – odamlarning hayotini asrab qolishga va sog‘lig‘ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

10. FVDTning funksional quyi tizimi – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi boshqarmalar va muaassasalar hamda boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga olgan quyi tizim;

11. FVDTning hududiy quyi tizimi – tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi shaharlar va tumanlarning mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o‘z ichiga olgan quyi tizim;

12. Fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O‘zbekiston Respublikasi aholisini, hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o‘tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

13. 2-bob. FVDTning asosiy maqsadi va vazifalari

14. FVDTning asosiy maqsadi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga ega bo‘lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan boshqarmalar, muassasalar va boshqa tashkilotlar, shuningdek, tumanlar, shaharlar hokimliklari tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishini ta’minlashdan iborat.

15. Quyidagilar FVDTning asosiy vazifalari hisoblanadi:

16. Viloyat hududida tinchlik va alohida davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, bu sohada ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash;

17. Viloyat hududida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

18. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish yuzasidan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, ushbu soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

19. FVDTning barcha darajadagi boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta’minlash;

20. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, almashish, axborot tayyorlash va berish;

21. Aholini, FVDT boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

22. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish;

23. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

24. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish;

25. Xorijiy davlatlar hududida ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yordam ko‘rsatish hamda ularni va halok bo‘lganlarni evakuatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

26. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

27. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida fuqarolarning, shu jumladan, ularni bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini ta’minlash;

28. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish;

29. Ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan sug‘urta qilishni tashkil etish.

30. 3-bob. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi

31. FVDTning tashkiliy-funksional tuzilmasi mazkur Nizomga ilovaga muvofiq belgilanadi.

32. FVDT hududiy va funksional quyi tizimlari hamda axborot-boshqaruv tuzilmasidan iborat bo‘lib, mahalliy va obyekt darajalariga ega.

33. FVDTning har bir darajasi quyidagilarga ega bo‘ladi:

34. FVDT boshqaruv organlari;

35. FVDT tezkor-boshqaruv organlari;

36. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari;

37. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari;

38. Favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari.

39. FVDTning hududiy quyi tizimlari o‘z ma’muriy hududlari doirasida aholini va

hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun tegishli tumanlar va shaharlarda tashkil etiladi.

40. FVDT hududiy quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko‘rsatish tartibi mazkur Nizom, mahalliy geofizik va tabiiy-iqlim sharoitlarini, xavf darajasi yuqori obyektlarning mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilanadi.

41. Hududiy quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan holda tegishli ravishda tuman (shahar)lar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

42. FVDTning funksional quyi tizimlari viloyatdagi boshqarmalar, muassasalar va boshqa tashkilotlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan funksiyalarni bajarish, shuningdek, idoraviy mansub obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuchlari va vositalaridan iborat bo‘ladi.

43. FVDT funksional quyi tizimlarining vazifalari, ularni tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko‘rsatish tartibi mazkur Nizom, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha funksiyalari, xavf darajasi yuqori bo‘lgan idoraviy mansub obyektlardagi ishlab chiqarish texnologiyalarining xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan funksional quyi tizimlar to‘g‘risidagi nizomlar bilan belgilanadi hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan holda tegishli boshqarma, muassasa va tashkilotlar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tasdiqlanuvchi ixtisoslashgan xizmatlar va avariya-qutqaruv tuzilmalari to‘g‘risidagi nizomlar bundan mustasno.

44. FVDTning axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

45. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining Tezkor boshqaruv markazi;

46. FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari;

47. Atrof tabiiy muhit va xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

48. Turg‘un (statsionar) boshqaruv punktlari;

49. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishning harakatdagi punktlari;

50. FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;

51. Aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan, boshqarish va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.

52. Axborot-boshqaruv tuzilmasi quyidagilarni ta’minlashi lozim:

53. FVDTning hududiy va funksional quyi tizimlarining ixtisoslashgan hamda laboratoriya nazorati va kuzatuv tizimidagi bo‘linmalaridan olingan seysmologik, geologik, gidrometeorologik xavfli hodisalar, quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o‘zgarishi, atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari hamda gidrosfera holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq vaziyatlar, sanoat va transportdagi avariyalar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, epifitotiyalar, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) holat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash (tahlil qilish va saqlash);

54. FVDTning boshqaruv organlari, kundalik boshqaruv organlari, kuchlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar xavfi yoki ro‘y berganligi, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi holatlari, xususiyatlari, rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi to‘g‘risida xabardor qilish va ma’lumot (axborot) berish;

55. FVDT quyi tizimlari va bo‘g‘inlari, boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar o‘rtasida o‘zaro axborot va ma’lumot almashinuvini ta’minlash.

56. Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarning mezonlari, mazmuni va turlari, ularni FVDT quyi tizimlari va bo‘g‘inlariga, shuningdek, aholiga yetkazish muddatlari va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig‘I tomonidan tasdiqlangan favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha kundalik hamkorlik qilish va xabar berish yo‘riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

57. Toshkent viloyati FVDT boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

58. Mahalliy (viloyat) darajada – viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, tumanlar va shaharlar Favqulodda vaziyatlar bo‘limlari, tashkilotlarning vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni hal etish kiradigan bo‘linmalari;

59. Obyekt darajasida – obyektlar ma’muriyati hamda vakolatiga aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vazifalarni bajarish kiradigan tarkibiy bo‘linmalari (xizmatlari, shubalari yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslari)dan iborat.

60. FVDT, uning quyi tizimlari va bo‘g‘inlarining faoliyatini tashkil etish, aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha ularga belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash tegishli FVDT boshqaruv organlariga yuklanadi.

61. FVDT tezkor-boshqaruv organlari – FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari hamda ularning bo‘g‘inlaridagi tezkor boshqaruvni amalga oshiruvchi bo‘linmalardir, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

62. Mahalliy darajada – Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tezkor-boshqaruv markazi, shaharlar va tumanlar Favqulodda vaziyatlar bo‘limlarining tezkor-boshqaruv guruhlari, tashkilotlarning navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;

63. Obyektlar darajasida – obyektlarning navbatchilik-dispetcherlik xizmatlari;

64. Tegishli ravishda har bir darajadagi FVDT boshqaruv organlarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlari.

65. FVDT tezkor-boshqaruv organlari tegishli boshqaruv organining doimiy joylashuv punktlarida, favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda esa – favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish kuchlari va vositalarini boshqarish statsionar va harakatdagi punktlarda tashkil etiladi. Ular oldindan xabar berish, aloqa, axborotni qayta ishlash va uzatishning tegishli texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda o‘zlariga yuklangan vazifalarni bajarishga doimiy tayyor holatda saqlanadi.

66. Tezkor-boshqaruv organlari favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida ogohlantirish ma’lumotlarini hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar FVDT boshqaruv organlariga tezkor taqdim etilishini ta’minlaydi.

67. Quyidagilar mahalliy darajadagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

68. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlar sharoitlarida xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarning barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga doir tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

69. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha viloyatning maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

70. Aholini favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining mahalliy darajasini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

71. Boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televideniye va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta’minlash;

72. FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong‘in va boshqa xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimning lokal darajasini yaratish va ularning doimiy shayligini ta’minlash;

73. Favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi xavfli tabiiy, texnogen va ekologik jarayonlarning rivojlanish ehtimolini, xususiyatlari hamda ko‘lamini, shuningdek, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish;

74. Boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, kuchlar va vositalarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha harakatlarga doimiy tayyorligini ta’minlash;

75. Ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, ularni bartaraf etishga doir ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, almashish va o‘z vaqtida xabar qilish;

76. FVDT hududiy quyi tizimlari kuchlari va vositalarining, shuningdek, ko‘ngilli tuzilmalar, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar chog‘ida qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirishiga rahbarlik qilish va harakatlarining uyg‘unligini ta’minlash, volontyorlar hamda mehnatga layoqatli aholini ushbu ishlarga jalb qilishni tashkil etish;

77. Aholini evakuatsiya qilish (vaqtincha olib chiqish)ni, evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish, hayot sharoitini ta’minlash hamda ularning favqulodda vaziyatlar bartaraf etilgach doimiy yashash joylariga qaytishini rejalashtirish va amalga oshirish;

78. Xavfli zonalardagi aholi punktlarida va xo‘jaliklarda yashovchilarni xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish hamda ularning hayotiy sharoitini har tomonlama ta’minlash;

79. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta’minlash;

80. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini moliyalashtirish;

81. FVDT xizmatlari va tuzilmalarini, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruv xizmatlarini belgilangan tartibda tashkil etish;

82. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish;

83. Fuqarolarni, ularning uy-joyi va mol-mulkini maqsadli sug‘urta qilishni tashkil etish hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan sug‘urtalangan himoyasi samaradorligini ta’minlash uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va sug‘urta tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

84. Aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, kuchlar va vositalarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashga rahbarlik qilish.

85. Quyidagilar obyektlar darajasidagi FVDT boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

86. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, obyektlarning barqaror ishlashi imkoniyatini oshirishga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik qilish;

87. Texnogen avariyalar va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni barvaqt aniqlash, ular ro‘y berganda oqibatlarini prognoz qilish hamda ularni

bartaraf etish tadbirlarini rejalashtirish maqsadida avtomatik kuzatish, yong‘in va boshqa xavflardan darak beruvchi va nazorat tizimlarini keng joriy etish, kunlik monitoring va kuzatuv ishlarini nazorat qilish;

88. Obyektlarda va ularga yondosh hududlarda aholiga xabar berish va ma’lumot (axborot) yetkazishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal va obyekt darajalarini yaratish ishlarini tashkil etish;

89. FVDT boshqaruv organlarining, obyektlar kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlardagi harakat qilishga tayyorligini ta’minlash;

90. Axborot to‘plashni ta’minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va zarur yordam to‘g‘risida yuqori organlarga ma’lumot berish;

91. Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini belgilangan tartibda tashkil etish;

92. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlari bajarilishini, obyektning zarar ko‘rgan xodimlarini va obyekt yaqinida yashaydigan aholini evakuatsiya qilish va hayot sharoitlarini ta’minlash;

93. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni qayta tiklashni ta’minlash;

94. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar uchun texnik hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash ishlarini tashkil etish;

95. Obyektlarning xavfsizligini pasportlashtirish va deklaratsiyalash, tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo‘lgan zonalar chegaralarini belgilash.

96. FVDTning kuchlari va vositalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

97. Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari;

98. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi ixtisoslashtirilgan va yong‘in-qutqaruv tuzilmalari;

99. Boshqarmalar, tashkilotlar va obyektlarning professional ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari va tuzilmalari, mahalliy va obyektlar darajasida FVDT hududiy va

funksional quyi tizimlarining xizmatlari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari.

100. FVDT kuchlari va vositalari belgilangan vazifalarni O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati viloyat kengashining ko‘ngillilar otryadlari (komandalari, guruhlari), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzuridagi “Mahalla fuqaro muhofazasi” yig‘ma guruhlari, “Vatanparvar” mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkiloti bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

101. Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga bo‘ysunadi hamda o‘z tezkor yo‘nalishlariga muvofiq alohida davrda viloyatning muhim mudofaa va sanoat obyektlarida favqulodda vaziyatlarni tugatishga doir ishlarni olib boradi.

102. Fuqaro muhofazasi qo‘shinlari yirik ko‘lamdagi ishlab chiqarish avariyalari, halokatlar, tabiiy ofatlar sharoitida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish va maxsus priborlar, texnikalar, asbob-uskunalar va tayyorlangan mutaxassislarni talab etuvchi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondonining farmoyishiga asosan jalb etilishi mumkin.

103. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvchi qutqaruv tuzilmalari malakali mutaxassislar bilan butlangan va maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqarish vositalari bilan jihozlangan, qutqaruv ishlarini avtonom rejimda kamida 72 soat ichida amalga oshirishga mo‘ljallangan, doimiy shay holatdagi qutqaruv tuzilmalarini o‘z ichiga oladi.

104. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga tezkor bo‘ysunuvchi ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Toshkent filiali (shuningdek, shahar va tuman filiallari), qidiruv va avariya-qutqaruv xizmatlari va tuzilmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda transport boshqarmasi tomonidan jalb qilinadigan avtotransport vositalari va tashkil etiladigan avtosanitar kolonnalari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni tugatishga, FVDT kuchlari harakati va tadbirlarini ta’minlashga mo‘ljallangan FVDT funksional quyi tizimlarining boshqa tarkibiy bo‘linmalarini o‘z ichiga oladi.

105. Tezkor bo‘ysunadigan tuzilmalarning vazifalari, tayyorlanish muddatlari, ularni jalb etish tartibi ushbu tuzilmalarning Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishilgan harakat qilish rejalarida hamda FVDT tegishli funksional quyi tizimlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanadi.

106. Viloyatdagi o‘ta muhim va toifalangan obyektlarda, tashkilot va muassasalarda tashkil etilgan harbiylashtirilgan va professional avariya-qutqaruv, avariya-tiklash va boshqa ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar idoraviy mansub obyektlarda ishlab chiqarish-texnologiya avariyalari va halokatlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shuningdek, epidemiyalar, epizootiyalar va epifitotiyalar yuzaga kelganda maxsus vazifalarni hal etish uchun mo‘ljallangan.

107. Viloyatdagi boshqarmalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa obyektlarning yong‘in, kon, gaz-qutqaruv, qurilish, qurilish-montaj, tibbiyot va boshqa ixtisoslashtirilgan bo‘linmalari negizida favqulodda vaziyatlarning tarqalishini cheklash hamda ularning oqibatlarini tugatish bo‘yicha birinchi navbatdagi ishlar uchun doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar tuzilishi mumkin.

108. Doimiy tayyorgarlikdagi idoraviy tuzilmalar o‘z obyektidan tashqari avariya obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga amaldagi xarajatlar qoplangan

holda shartnoma asosida jalb etiladi.

109. Aholini va hududlarni ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yirik texnogen avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishga doir vazifalarni bajarish uchun viloyat, shaharlar va tumanlar hokimlarning qarorlari bilan geofizik, tabiiy-iqlim va boshqa mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda qurilish, qurilish-montaj, avtokorxonalar va boshqa tashkilotlar negizida mahalliy davlat organlarining umumiy va maxsus vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan hududiy tuzilmalari tashkil etiladi.

110. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda ushbu obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan mavjud ixtisoslashtirilgan xizmatlar va bo‘linmalar (qurilish, kimyo, tibbiy va boshqalar) negizida bevosita obyektlarda kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun shtatdan tashqari ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etiladi.

111. Yirik ko‘lamli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor qutqaruv ishlarini bajarish hamda zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyaning raditsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda maxsus avariya-tiklash bo‘linmalari, muhandislik-sapyor va boshqa harbiy bo‘linmalari, harbiy-transport aviatsiyasi hamda harbiy-tibbiy xizmat muassasalari jalb etilishi mumkin.

112. 4-bob. FVDTning faoliyat ko‘rsatishi tartibi

113. Prognoz qilingan yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatning ko‘lami va holatiga qarab viloyat hududida yoxud viloyatning muayyan bir hududida FVDT quyidagi rejimlardan birida faoliyat yuritadi:

114. Kundalik rejim – muayyan hududda, obyektda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lmaganda;

115. Yuqori tayyorgarlik rejimi – favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi mavjud bo‘lganda;

116. Favqulodda vaziyat rejimi – favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda va favqulodda vaziyatlar davrida.

117. FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlari ro‘y bergan favqulodda vaziyatning turiga qarab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklarining, shuningdek tegishli obyektlar rahbarlarining qarorlari bilan joriy etiladi.

118. FVDT faoliyatining yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyat rejimlarini joriy etish bo‘yicha qarorda:

119. Tegishli faoliyat rejimini joriy etish uchun asos bo‘lgan holat;

120. Favqulodda vaziyat ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hudud chegaralari yoki favqulodda vaziyat hududining chegaralari;

121. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlar va vositalar;

122. Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha choralar;

123. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun mas’ul mansabdor shaxslar yoki favqulodda vaziyatni bartaraf etish tadbirlarining rahbari belgilanadi.

124. Favqulodda vaziyat rejimini joriy etishda favqulodda vaziyatlar turlari, shuningdek, aholining hayot faoliyati xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillar hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun qo‘shimcha talab etiladigan chora-tadbirlardan kelib chiqib favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishning quyidagi darajalaridan biri amalga kiritiladi:

a) obyekt darajasida bartaraf etish;

b) mahalliy darajada bartaraf etish;

v) respublika va transchegaraviy darajada bartaraf etish.

125. Quyidagilar FVDT faoliyat ko‘rsatish rejimlarida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar hisoblanadi:

a) kundalik faoliyat rejimida:

b) atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan nazorat qilish hamda kuzatish, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash;

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotni to‘plash, tahlil qilish va almashish;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha maqsadli va ilmiy-texnik dasturlar hamda tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga doir tadbirlarni rejalashtirish;

Aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o‘rgatish;

Aholiga xabar berishning va uni xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish, shayligini ta’minlash hamda nazorat qilish;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish hamda ularning o‘rnini to‘ldirib borish;

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;

Sug‘urtaning maqsadli turlarini amalga oshirish.

b) yuqori tayyorgarlik rejimida:

Favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida boshqaruv organlariga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish, shuningdek, aholini xabardor qilish;

Atrof tabiiy muhitning holati, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlardagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat ustidan monitoringni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning ro‘y berishi ehtimolini, ko‘lamlari hamda oqibatlarini prognoz qilish;

Favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hududlarda ularning ro‘y berishi xavfini baholash uchun tezkor guruhlarni tashkil etish, tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tezkor tadbirlarni va zarur bo‘lganda, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilishni amalga oshirish;

Favqulodda vaziyatlar sharoitlarida aholini va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, shuningdek, turar joy binolarining, hayot ta’minoti tizimlarining, obyektlar hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash choralarini ko‘rish;

FVDT tarkibiga kiradigan davlat organlari va tashkilotlar rahbarlarining kecha-kunduz navbatchiligini tashkil etish;

FVDT tarkibiga kiradigan boshqaruv organlari va tashkilotlarning tezkor boshqaruv bo‘linmalari o‘rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish;

FVDT kuchlari va vositalarini shay holatga keltirish, faoliyatni yuqori tayyorgarlik rejimiga o‘tkazish, ularning harakatlari rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo‘lganda, ularni favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi mumkinligi taxmin qilinayotgan hududga yo‘naltirish.

v) favqulodda vaziyat rejimida:

Favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida boshqaruv organlariga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarga xabar berish,

shuningdek, aholini xabardor qilish;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir rejalarni amalga kiritish;

Aholining, moddiy va madaniy qimmatliklarning xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilinishini tashkil etish;

Favqulodda vaziyat zonasining chegaralarini belgilash, o‘rab olish (to‘sib qo‘yish), unga kirish-chiqish rejimini va unda harakatlanish rejimini belgilash;

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarni jalb qilish, mazkur tuzilmalar tomonidan favqulodda vaziyatlarning kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka va ularning birlamchi sabablarini bartaraf etishga doir ishlarni, qutqaruv ishlarini hamda kechiktirib bo‘lmaydigan

boshqa ishlarni amalga oshirish;

Iqtisodiyot obyektlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishini, shuningdek, jabrlangan aholining hayot faoliyati sharoitlarini ta’minlash ishlarini tashkil etish;

Favqulodda vaziyatlar zonalarida atrof tabiiy muhitning holati, avariya obyektlaridagi va ularga tutash hududlardagi vaziyat yuzasidan monitoring olib borish;

Evakuatsiya qilingan aholini vaqtinchalik joylashtirish va uning hayot faoliyatini ta’minlash, tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etish hamda aholining vaqtincha bandligini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rish;

Favqulodda vaziyatlar zonalarida epidemiyag qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarini bajarish;

Birinchi navbatda infratuzilma obyektlarini tiklash, ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

Jabrlangan aholiga moddiy yordam ko‘rsatish, jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.

126. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun quyidagi mablag‘lardan foydalaniladi:

127. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zahira jamg‘armasi va davlat zahirasining moddiy resurslari zahirasi – O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari hisobidan;

128. Idoraviy moliyaviy va moddiy resurslarning zaxirasi – FVDT funksional quyi tizimlarining budjet va budjetdan tashqari mablag‘lari hamda qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

129. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi – viloyat mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan;

130. Obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi – tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan;

131. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy donorlarning muruvvat yordami.

132. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo‘lgan tovarlar omborlari va zaxiralari tizimlaridan uning roziligi bilan foydalanish mumkin.

133. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining harbiy, ixtisoslashtirilgan yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari, FVDT tarkibiga boshqarmalar, muassasalar va tashkilotlarning tegishli tuzilmalari hamda bo‘linmalarining kuchlari va vositalari bilan amalga oshiriladi.

134. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlik qilish:

135. Lokal favqulodda vaziyatlarda – hududida favqulodda vaziyat ro‘y bergan tashkilotning rahbari belgilagan mas’ul xodim tomonidan;

136. Mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda – Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, mazkur sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi boshqarma, tashkilot rahbari tomonidan viloyat, shuningdek, tumanlar, shaharlar hokimlarining qarori asosida;

137. Respublika miqyosidagi va transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda – maxsus vakolatli davlat organining rahbari yoki ro‘y bergan favqulodda vaziyatning xususiyatiga qarab, mazkur sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi vazirlikning, davlat qo‘mitasining va idoraning rahbari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshiriladi.

138. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun resurslar yetarli bo‘lmagan taqdirda, ular obyekt ma’muriyati, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari rahbarlarining iltimosnomasiga binoan FVDTning yuqori organlari zaxiralaridan ajratilishi mumkin.

139. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha dasturlarni moliyalashtirish, tarmoqlar va obyektlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash har bir darajada tegishli budjetlar, FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

140. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni mablag‘ bilan ta’minlash favqulodda vaziyatlar zonalarida joylashgan obyektlarning mablag‘lari, shuningdek, viloyat, tumanlar (shaharlar) mahalliy budjetlari hamda FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

141. Ko‘rsatilgan mablag‘lar mavjud bo‘lmagan yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga zaxira jamg‘armadan mablag‘lar ajratishni so‘rab murojaat qilinadi.

142. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararlar miqdorini kamaytirish bo‘yicha oldindan choralar ko‘rish maqsadida viloyat, shahar (tuman) mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va obyektlarning harakat qilish rejalari, shuningdek, FVDTning barcha darajalarida o‘zaro hamkorlikda harakat qilish rejalari ishga solinadi.

142. FVDT harakatlarini rejalashtirishga tashkiliy-metodik rahbarlik qilishni FVB amalga oshiradi.

143. 5-bob. Yakunlovchi qoida

144. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 18-iyuldagi
149-10-212-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Boshqarmalar, tashkilotlar va boshqa muassasalarning Farg‘ona viloyati

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish

davlat funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda

vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha

FUNKSIYALARI

1-bob. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining funksiyalari

1. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quyi tizimi (keyingi o‘rinlarda – FVDT) faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va davlat nazoratini amalga oshirish.

2. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish, suv obyektlarida fuqarolarning hayoti va sog‘ligini muhofaza qilishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va FVDT tarkibidagi tashkilotlarning samarali hamkorligini tashkil etish.

3. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognoz qilishning yagona tizimini boshqarish va nazoratini olib borish.

4. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni tashkil etish va amalga oshirish.

5. Boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining va tashkilotlarning rahbarlarini, shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun jalb etiladigan kuchlarni favqulodda vaziyatlar sharoitlarida harakat qilishga tayyorlashni tashkil etish.

6. FVDT funksional quyi tizimining Yong‘in xavfsizligini ta’minlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

2-bob. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent viloyati bo‘yicha boshqarmasining funksiyalari

7. Tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qatnashish.

8. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish chog‘ida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish.

9. Favqulodda vaziyatlar zonalarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarning qo‘riqlanishini hamda muhofaza qilinishini ta’minlash.

10. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

11. FVDT funksional quyi tizimining Qo‘riqlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

3-bob. Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasining funksiyalari

12. Favqulodda vaziyat zonasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibi va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish.

13. Aholini xabardor qilish, hududdagi zarur uchastkalarni o‘rab olish (to‘sib qo‘yish) bo‘yicha choralar ko‘rish, qarovsiz qolgan mol-mulkni qo‘riqlashni ta’minlash.

14. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda favqulodda vaziyatlarda halok bo‘lgan odamlarning hisobini yuritish.

15. Maxsus avtomashinalar yordamida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va evakuatsiya tadbirlarini olib borish vaqtida avtotransport va yo‘l harakati nazoratini olib borish.

16. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish shtabi talabiga asosan evakuatsiya uchun jalb etiladigan transport vositalarini yig‘ishga ko‘maklashish.

17. Epidemiya va epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarda karantin (observatsiya) o‘rnatish ishlariga kuch va vositalarini jalb qilish.

18. Profilaktika inspektorlari orqali favqulodda vaziyat to‘g‘risida aholiga xabar berishga ko‘maklashish.

19. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

20. FVDT funksional quyi tizimining:

Jamoat tartibini saqlash xizmatini;

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

4-bob. Toshkent harbiy okrugining funksiyalari

21. Toshkent harbiy okrug obyektlari joylashgan mintaqalardagi radiatsiyaviy, kimyoviy va bakteriologik vaziyatning nazorat qilinishini ta’minlash.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining qaroriga binoan okrug qo‘shinlari, avariya-qutqaruv xizmati kuchlari va vositalarini, muhandislik-sapyor bo‘linmalarini, raditsion, kimyoviy, biologik muhofaza hamda maxsus avariya-tiklash boshqarmasi maxsus texnika va moddiy resurslarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga yetkazishda harbiy-transport aviatsiyasining qatnashishini ta’minlash.

23. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun idoraviy mansub obyektlarda favqulodda vaziyatlar

yuzaga kelishi xavfi to‘g‘risida axborot almashinuvini amalga oshirish.

5-bob. Toshkent viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasining funksiyalari

24. Belgilangan tartibda tibbiy yordam xizmati tuzilmalarini tashkil etish, ularning kerakli shaxsiy himoya vositalari, maxsus jihoz va texnikalar bilan ta’minlash hamda doimiy shay holatda turishlarini tashkil etish.

25. Favqulodda vaziyatlarning xususiyatini hisobga olib zarar ko‘rgan aholiga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish, joriy etish va takomillashtirish, zarar ko‘rganlarga tezkor tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minlash.

26. Favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish, shuningdek favqulodda vaziyat zonasiga dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar tezkor yetkazib berilishini ta’minlash.

27. Zarar ko‘rgan va transportda tashish mumkin bo‘lmagan kasallarni hisobga olish va ularning favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilinishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish.

28. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi vositalar zahiralarini yaratish hamda ularni zarur darajada saqlashni ta’minlash.

29. Aholini favqulodda vaziyatlar sharoitida dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatishga o‘qitish va tayyorlashning metodik asoslarini ishlab chiqish.

30. Xorijiy davlatlar hududida ro‘y bergan yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlanganlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga evakuatsiya qilish tadbirlarining tibbiy ta’minotini amalga oshirish.

31. Tashish mumkin bo‘lmagan jabrlanganlarga chet elda tibbiy yordam berish tadbirlarini amalga oshirishda xorijiy davlatning tegishli tibbiyot muassasalariga ko‘maklashish.

32. Xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlarda halok bo‘lganlar va jabrlanganlarning ro‘yxatini yuritish.

33. Xorijiy davlatlar hududida yoki transchegaraviy favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga malakali va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni, shuningdek, ularning tibbiy reabilitatsiyasini ta’minlash.

34. Viloyat hududida favqulodda vaziyatlarda jarohatlangan va halok bo‘lgan chet el fuqarolari to‘g‘risida mutasaddi organlarga xabar berish.

35. Obyektlarning sandrujina (postlari) soni, tarkibi va moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlanish meyorlarini Qizil Yarim oy jamiyati bilan hamkorlikda ishlab chiqish.

36. Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda sanitariya drujinalari va postlarini dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatishga tayyorlash.

37. Tibbiy profilaktika bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning amalga oshirilishini ta’minlash.

38. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

39. FVDT funksional quyi tizimining Tibbiy yordam xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

6-bob. Toshkent viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining funksiyalari

40. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sanitariya-epidemiologiya xizmati tuzilmalarini tashkil etish, ularni kerakli shaxsiy himoya vositalari, maxsus jihoz va texnikalar bilan ta’minlash hamda doimiy shay holatda ushlab turish.

41. Viloyat hududidagi sanitariya-epidemiyaga oid ahvolni kuzatish, nazorat qilish va prognoz qilishni ta’minlash.

42. Sanitariya-epidemiologiya sohasida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan xavf- xatarlarni aniqlash, baholash, viloyat hududidagi yuqumli kasalliklar tabiiy o‘choqlari ustidan epidemiologik monitoring va epidemiyaga qarshi profilaktik tadbirlar majmuini amalga oshirish.

43. Epidemiyalar va pandemiyalar sharoitlarida karantin tadbirlarini tashkil etish, tibbiy, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;

44. Favqulodda vaziyatlar zonalarida sanitariya-gigiyena, radiatsion gigiyena, fizik omillar, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar tashxisi bo‘yicha laboratoriyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

45. Favqulodda vaziyat zonasidagi atrof-muhitning radioaktiv, kimyoviy, zaharlovchi moddalar va bakterial (biologik) vositalar ifloslanishini nazorat qilish.

46. Inson salomatligiga ta’sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringini olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

47. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun himoya vositalari, vaksinalar va zararsizlantiruvchi vositalar zahirasini yaratish.

48. Favqulodda vaziyat ro‘y bergan hududlarda dezinfeksiya ishlarini tashkil etish.

49. Chegara-bojxona maskanlarida sanitariya nazorati postlarini tashkil etish va ularning ish faoliyatini nazorat qilish.

50. FVDT boshqaruv organlari va aholini favqulodda vaziyatlar mintaqalaridagi sanitariya-epidemiyaga oid ahvol to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

51. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

52. FVDT funksional quyi tizimining Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat

salomatligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

7-bob. Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining funksiyalari

53. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimining qarorlari asosida moddiy resurslar zahirasini yaratish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tadbirlarini mablag‘ bilan ta’minlash.

54. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda zahira jamg‘armasidan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun ajratilgan mablag‘larning hisobi

yuritilishini tashkil etish hamda ulardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan nazoratni

amalga oshirish.

55. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimining topshiriqlari asosida horijiy davlatlar hududida ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan Toshkent viloyati fuqarolariga yordam ko‘rsatish hamda ularni va halok bo‘lganlarni evakuatsiya qilish tadbirlarini, mutaxassislarning horijiy davlatga voqea joyiga yetib borishini va O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelishini moliyalashtirish.

56. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda boshqarmalar, muassasalar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi obyektlarini qurish yuzasidan o‘rta va uzoq muddatli strategiyalar va dasturlarni ko‘rib chiqish hamda ular bo‘yicha viloyat hokimligiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritish uchun takliflar tayyorlash.

8-bob. Toshkent viloyati Bojxona boshqarmasining funksiyalari

57. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash hamda ularni shay holatda saqlash.

58. Aholi va atrof tabiiy muhit uchun radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik), yong‘in xavfini tug‘diradigan tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi va uning hududidan olib chiqib ketilishini nazorat qilish va hisobini yuritish.

59. O‘zaro harakat qiluvchi va nazorat qiluvchi boshqarma va tashkilotlarni viloyat hududi orqali (unga va undan) tranzit bo‘yicha olib kirish (olib chiqib ketish) yuzasidan nazoratni amalga oshirish chog‘ida noqonuniy xavfli moddalar topilishi (aniqlanishi) holatlari to‘g‘risida xabardor qilish.

60. Topilgan (aniqlangan) xavfli moddalarni dastlabki o‘rganish va identifikatsiyalashni o‘tkazish.

61. Xodimlarni va fuqarolarni xavfli moddalarning zararli ta’siridan himoya qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

62. Topilgan (aniqlangan) xavfli moddalarni olib kirishga yoki tranzit bo‘yicha

jo‘natuvchiga qaytarishga, shuningdek ularning sanksiyasiz olib chiqib ketilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tartibotlar yuzasidan belgilangan tartibda tashabbus ko‘rsatish.

63. Topilgan (aniqlangan) xavfli moddani identifikatsiyalash va olib chiqib ketish ishlari tugagungacha uning daxlsizligini ta’minlash.

64. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

65. FVDT funksional quyi tizimining Yong‘in chiqishi, portlovchi-radiatsiyaviy xavfli yuklar (tovarlar), zaharli va kimyoviy moddalar, shuningdek, kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan kuzatish va nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

9-bob. Kadastr agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi va Davlat kadastrlari palatasining Toshkent viloyati boshqarmasining funksiyalari

66. Favqulodda vaziyat ro‘y bergan joylar hamda favqulodda vaziyat ta’siriga tushuvchi hududlar relyefining kompyuter modullarini ishlab chiqish.

67. Viloyat bo‘yicha barcha bino va inshootlarni ro‘yxatga olish, ularning qavatlari, tegishliligi va qurilish materiallarining turi bo‘yicha hisobini yuritish.

68. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasini bino va inshootlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, geodeziya va kartografiya axboroti, shuningdek, yer-kadastr xaritalari bilan ta’minlash.

69. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

10-bob. Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining funksiyalari

70. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shartnoma asosida chet davlatlarga ishga yuborilayotgan fuqarolar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish.

71. Favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish chog‘ida hayot faoliyatini tiklashga doir ishlarni bajarishga band bo‘lmagan aholini jalb etish.

72. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilingan aholi bandligini ta’minlash maqsadida ularni vaqtinchalik ish bilan ta’minlash.

73. Mahalla fuqarolar yig‘inlari darajasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi vazifalarni hal etishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga ko‘maklashish.

74. Mahalla fuqarolar yig‘inlarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lmagan aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash.

75. “Mahalla fuqaro muhofazasi” yig‘ma guruhlarini tuzish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

76. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalb etish.

77. Aholini favqulodda vaziyat zonasidan xavfsiz joylarga evakuatsiya qilishni tashkil etishda ishtirok etish.

78. Evakuatsiya qilingan aholini hisobga olishda va vaqtinchalik joylashtirishda ishtirok etish.

79. Tizim obyektlarida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

80. Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish.

11-bob. Toshkent viloyati hududidagi oliy ta’lim muassasalari, Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasining funksiyalari

81. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

82. O‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar va o‘quvchilarni “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzulari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.

83. O‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish.

84. Ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

85. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda ishtirok etish.

12-bob. Toshkent viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasinng funksiyalari

86. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni “Hayot faoliyati xavfsizligi” mavzulari bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish.

87. O‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish.

88. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Yosh qutqaruvchi” ko‘ngillilar klublarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

89. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya jarayonida favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatishni tashkil etish choralarini ko‘rish.

90. Tizim tashkilotlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

13-bob. Toshkent viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining funksiyalari

91. Qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotning

tezkorlik bilan olinishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishini ta’minlash.

92. Favqulodda vaziyat zonasidagi aholini va evakuatsiya qilingan aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta’minlashni tashkil etish.

93. Tarmoq tarkibiga kiruvchi obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini tashkil etish hamda amalga oshirish.

94. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi sohasidagi favqulodda vaziyatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

95. Favqulodda vaziyatlar zonasidagi qishloq xo‘jaligi o‘simliklarini himoya qilish, o‘simliklar orasida yuqumli kasalliklar (epifitotiyalar) tarqalishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

14-bob. Toshkent viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining funksiyalari

96. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash hamda ularni shay holatda saqlash.

97. Viloyat hududida epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ushbu kasalliklarni qo‘zg‘atuvchilari tarqalishini cheklash bo‘yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ular amalga oshirilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

98. Favqulodda vaziyatlar sharoitlarida hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar (epizootiyalar) ommaviy ravishda tarqalishining oldini olishga doir tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, epizootiyalarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

99. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi epizootik vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

100. Viloyat hududidagi barcha uy hayvonlarini ro‘yxatga olish va ular orasida yuqumli, o‘ta xavfli kasalliklar va karantin infeksiyalar tarqalishini oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazish.

101. Chegara-bojxona maskanlarida veterinariya-karantin postlarini tashkil etish va nazorat qilish.

102. Viloyat hududidagi barcha qushxona va hayvon bozorlarida davlat veterinariya nazoratini olib borish, iste’molga yaroqsiz mahsulotlarni sotuvdan chetlatish hamda maxsus yo‘llar bilan yo‘q qilish.

103. Xizmat tasarrufidagi barcha laboratoriyalarni favqulodda vaziyatlarda uzluksiz ishlashi uchun kerakli sharoitlar yaratib berish.

104. Epizootiyalarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun kerakli vositalar, vaksinalar zahirasini yaratish.

105. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

106. FVDT funksional quyi tizimining Veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

15-bob. “Chirchiq-Oxangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining funksiyalari

107. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holati ishonchliligini va xavfsiz ishlashini ta’minlash.

108. Daryolar va kanallarning gidrologik rejimi, toshqinlar, halokatli suv bosishlar, gidrotexnika inshootlariga tabiiy va texnogen ta’sirlar monitoringini tashkil etish va olib borish.

109. Daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariyalar va halokatlarning yuzaga kelishi mumkinligini prognoz qilish.

110. Suv xo‘jaligi obyektlarining ish rejimini o‘zgartirish yoki keyinchalik ulardan foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

111. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda suv bosishi, toshqinlar, sellarning oldini olish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqin suvlari va sellarning avariyasiz o‘tkazilishini ta’minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar kompleksini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

112. Aholini hamda tegishli tashkilotlarni gidrotexnika inshootlarida favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida xabardor qilish.

113. Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi gidrotexnika inshootlarini, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini tiklash, toshqin suvlarining xavfsiz o‘tkazib yuborilishini ta’minlash.

114. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda irrigatsiya xizmati tuzilmalarini tashkil etish, ularni kerakli shaxsiy himoya vositalari, maxsus jihoz va texnikalar bilan ta’minlash hamda doimiy shay holatda ushlab turish.

115. Viloyat hududidagi barcha suv va sel yo‘llarini ro‘yxatga olish, ularni ta’mirlash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlarini olib borish.

116. Tasarrufidagi maxsus va muhandislik texnikalarini doimiy soz holatda ishlab turishini ta’minlash, texnikalarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga jalb etish.

117. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini gidrotexnik inshootlar hamda boshqa suv manbalarining o‘pirilib ketishi bilan bog‘liq kutilayotgan suv toshqinlari va halokatli suv bosishlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

118. Favqulodda vaziyatlar, xususan, suv toshqini sodir bo‘lgan hududlarda zarur irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

119. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

120. FVDT funksional quyi tizimining Suv xo‘jaligi xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

16-bob. Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Toshkent viloyati hududiy inspeksiyasining funksiyalari

121. Suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining xavfsizligini, ishonchli ishlashini hamda qo‘riqlanishini nazorat qilish.

122. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarini joylashtirish va loyihalash bo‘yicha topshiriqlarni hamda ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalarni kelishish, shuningdek, ularning xavfsizligi qoidalari va mezonlarini ishlab chiqish.

123. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ularni foydalanishga qabul qilish, konservatsiyalash va tugatish ishlarida ishtirok etish hamda tegishli xulosalar berish.

124. Favqulodda vaziyatlarda xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarining aholiga va iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish.

125. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini mukammalligi I, II va III sinf bo‘lgan gidrotexnika inshootlarining texnik holati to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

17-bob. Toshkent viloyati Suv omborlaridan foydalanish boshqarmasining funksiyalari

126. Tasarrufidagi suv omborlarining texnik holati ishonchliligini va xavfsiz ishlashini ta’minlash.

127. Suv omborlarining gidrologik rejimi, toshqinlar, halokatli suv bosishlar, gidrotexnika inshootlariga tabiiy ta’sirlar monitoringini tashkil etish va olib borish.

128. Suv omborlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariyalar va halokatlarning yuzaga kelishi mumkinligini prognozlashtirish.

129. Suv omborlarining ish rejimini o‘zgartirish yoki keyinchalik ulardan foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

130. Suv omborlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, shu jumladan, loyihalarning ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etish, qurilishning sifatini va foydalanishga qabul qilib olinishini nazorat qilish.

131. Suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning lokal tizimlarini yaratish.

132. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda suv omborlarida toshqinlar va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqin suvlari va sellarning avariyasiz o‘tkazilishini ta’minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar kompleksini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

133. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini suv omborlarining to‘g‘onlari va gidrotexnik inshootlari o‘pirilib ketishi bilan bog‘liq kutilayotgan suv toshqinlari va halokatli suv bosishlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

134. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

18-bob. Toshkent viloyati Transport boshqarmasining funksiyalari

135. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtotransport xizmati tuzilmalarini tashkil etish, ularni kerakli shaxsiy himoya vositalari, maxsus jihoz va texnikalar bilan ta’minlash hamda doimiy shay holatda turishini tashkil etish.

136. Viloyat hududidagi yuk va yo‘lovchi tashishga ixtisoslashgan korxona, tashkilot va muassasalar, ulardagi mavjud texnikalarning hisobini yuritish.

137. Harbiy davrda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga ajratilgan avtotransportdan tashqari qolgan transport vositalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va evakuatsiya tadbirlariga jalb etish.

138. Avtomobil, temir yo‘l, havo transportlaridan xavfsiz foydalanish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

139. Favqulodda vaziyatlarni tugatish va evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan FVDT qutqaruv tuzilmalari, kuch-vositalari, harbiy bo‘linmalar, maxsus texnika va moddiy resurslarni birinchi navbatda tashishni ta’minlash.

140. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirini amalga oshirish uchun avtomobil tuzilmalari va evakuatsiya poyezdlarini tashkil etish, shuningdek, ularni evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirishga tayyorlashni ta’minlash.

141. Portlovchi, yong‘in xavfi bo‘lgan yuklar va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalarni tashishda xavfsizlikni ta’minlash.

142. FVDT boshqaruv organlarini, yo‘lovchilar hamda aholini avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transportlarida favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

143. Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga zarur axborotlarni taqdim etish.

144. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

145. FVDT funksional quyi tizimining Avtotransport xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

19-bob. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining funksiyalari

146. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning ta’siriga uchragan joylarda va aholi punktlarida shaharsozlik faoliyatini alohida tartibga solish.

147. Shaharsozliq, loyihalash va qurilish faoliyatini muvofiqlashtirishda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ- huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini tashkil etish.

148. Shaharsozlik hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertiza qilish, shuningdek, xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar, texnik jihatdan murakkab va noyob obyektlarning loyiha hujjatlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi nuqtai nazaridan maxsus vakolatli davlat organi tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini ta’minlash.

149. Shaharsozlik vositalari orqali viloyat hududini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ta’siridan muhofaza qilish choralarini ko‘rish.

150. Favqulodda vaziyatlar natijasida obyektlarga hamda fuqarolarning turar joylariga yetkazilgan zararni hamda qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarga ehtiyojlarni hisob-kitob qilishda ishtirok etish.

151. Favqulodda vaziyatlar oqibatida binolar va inshootlarga yetkazilgan zararni baholash, shuningdek, ularning mustahkamlik holatini tekshirish.

152. Uy-joy kommunal xo‘jaligi faoliyatining barqarorligini oshirish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

153. Favqulodda vaziyatlar oqibatida shikastlangan uy-joy kommunal xo‘jaligi obyektlarini tiklash va ularning faoliyatini ta’minlash.

154. FVDT funksional quyi tizimining Shaharlar, aholi punktlari va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhandislikka doir muhofaza qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

20-bob. “Toshkent suv ta’minot” MCHJning funksiyalari

155. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avariya-tiklash xizmatlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob- anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash.

156. Favqulodda vaziyatlarda izdan chiqqan ichimlik suv va oqova suvlari tizimlarini tiklash, ularning favqulodda vaziyatlar sharoitlarida barqaror ishlashini ta’minlashni muvofiqlashtirish.

157. Ichimlik suvi ta’minotining barqarorligini oshirish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

158. Favqulodda vaziyatlar oqibatida jabrlangan aholini belgilangan meyorlar miqdorida ichimlik suv bilan ta’minlash.

159. Favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda xizmat tuzilmalari, avtotransport vositalari va maxsus texnikalarini jalb etish.

160. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

161. FVDT funksional quyi tizimining Ichimlik suv ta’minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

21-bob. “Toshkent hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyatining funksiyalari

162. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avariya-tiklash xizmatlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash.

163. Viloyat aholisini va iqtisodiyot tarmoqlarini kundalik rejimda va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida energetika resurslari bilan barqaror ta’minlashga

qaratilgan tadbirlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

164. Elektr energiyasini uzatish, taqsimlash va iste’mol qilish, shuningdek, undan xavfsiz foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish.

165. Energetika obyektlarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan avariyalar va halokatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

166. Energetika obyektlarida avariyalar kelib chiqishi ehtimolini va oqibatlarini prognozlashtirish, elektr tarmoqlari va obyektlarida favqulodda vaziyatlar chog‘ida ishlarning barqarorligini oshirish.

167. Ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarini doimiy tayyor holda saqlash hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdi ishtirok etishini ta’minlash.

168. Ishlab chiqarish obyektlari, aholi xayot faoliyatini ta’minlovchi obyektlar hamda turar joylarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash.

169. FVDT boshqaruv organlari va aholini elektr ta’minoti obyektlarida avariyalar va halokatlar yuzaga kelishi xavfi yoki sodir bo‘lganligi, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar chog‘ida aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

170. Elektr tarmoqlari asbob-uskunalaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishga oid

tadbirlar majmuini, shuningdek, iqtisodiyot obyektlari va viloyat aholisini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

171. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

172. FVDT funksional quyi tizimining Energetika xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

22-bob. “Hududgaz Toshkent” gaz ta’minoti

filialining funksiyalari

173. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avariya-tiklash xizmatlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash.

174. Viloyat aholisini va iqtisodiyot tarmoqlarini kundalik rejimda va favqulodda vaziyatlar sharoitlarida tabiiy va suyultirilgan gaz bilan barqaror ta’minlashga qaratilgan tadbirlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

175. Gazni uzatish, taqsimlash va iste’mol qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish.

176. Tabiiy gaz quvurlari, suyultirilgan gaz saqlash obyektlarini qurish va ulardan foydalanishda texnologiya talablariga rioya etilishini nazorat qilish.

177. Gaz ta’minoti obyektlarida ishlab chiqarish va texnologik jarayonning yuqori darajada xavfli o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan avariyalar va halokatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

178. Gaz tarmoqlarida avariyalar kelib chiqishi ehtimolini va oqibatlarini prognozlashtirish, gaz quvurlari va obyektlarida favqulodda vaziyatlar chog‘ida ishlarning barqarorligini oshirish.

179. Ixtisoslashtirilgan va qutqaruv tuzilmalarini doimiy tayyor holda saqlash hamda tarmoq obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishdi ishtirok etishini ta’minlash.

180. FVDT boshqaruv organlari va aholini tarmoq obyektlarida avariyalar va halokatlar yuzaga kelishi xavfi yoki sodir bo‘lganligi, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, favqulodda vaziyatlar chog‘ida aholining harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

181. Gaz taqsimlash inshootlari, gaz tarmoqlari asbob-uskunalaridan ishonchli va xavfsiz foydalanishga oid tadbirlar majmuini, shuningdek, favqulodda vaziyatlar sharoitida iqtisodiyot obyektlari va viloyat aholisini gaz bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

182. Aholi orasida tabiiy va is gazidan zaharlanish, gaz bilan bog‘liq yong‘in va chaqnash holatlarini oldini olish borasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

183. Tabiiy gaz quvurlari va suyultirilgan gaz omborlarida avariya holatlarini, oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda ularni ta’mirlash va tiklash.

184. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

185. FVDT funksional quyi tizimining gaz ta’minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

23-bob. Raqamli texnologiyalar vazirligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi, “O‘zbektelekom” AK Toshkent filialining funksiyalari

186. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avariya-tiklash xizmatlari, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash.

187. FVDTning barcha rejimlarida kommunikatsiyalar va markazlashtirilgan xabar berish tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

188. Aholini favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimi yaratilishiga ko‘maklashish.

189. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir ishlarga rahbarlikni amalga oshiruvchi FVDT boshqaruv organlarini umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlari bilan ustun darajada ta’minlash.

190. Favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash va FVDT boshqaruv organlariga uzatishni texnik ta’minlash.

191. Xabar berish, aloqa va axborot bilan ta’minlashning statsionar vositalariga foydalanish-texnik xizmat ko‘rsatishni shartnomaviy shartlarda amalga oshirish.

192. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni amalga oshirish chog‘ida kommunikatsiyani va axborot almashishni ta’minlash.

193. Zarurat tug‘ilganda mulkchilik shaklidan va idoraviy bo‘ysunishidan qat’iy nazar favqulodda vaziyat ro‘y bergan hududdagi barcha korxona, tashkilot va muassasalarning aloqa vositalarini fuqaro muhofazasi manfaatlarida ishlashini texnik ta’minlash.

194. Aholiga favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida o‘z vaqtida xabar berish uchun viloyatdagi mobil aloqa operatorlari orqali axborot (ma’lumot) yetkazilishini tashkil etish.

195. “O‘zbektelekom” AK Toshkent filiali negizida FVDTning funksional quyi tizimining Aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

24-bob. “O‘zbekiston Respublikasi Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish davlat xizmati” DM Angren va Bo‘stonliq kuzatish stansiyalarining funksiyalari

196. Xavfli tabiiy geologik jarayonlar (ko‘chish, qulash, suffoziol, karst)ning rivojlanish mintaqalari (zonalari)ni aniqlash, ularning faollashishini o‘rganish va ogohlantirish, tog‘ yonbag‘irlarining tabiiy barqarorligini saqlash bo‘yicha ko‘chkiga qarshi va boshqa oldini oluvchi tadbirlar birinchi navbatda o‘tkaziladigan zonalarni belgilash.

197. Aholi punktlarida, tog‘li va tog‘oldi mintaqalarda sog‘lomlashtirish obyektlari va boshqa jamoat obyektlari joylashgan hududlarda xavfli geologik jarayonlar monitoringini tashkil etish va olib borish (iqtisodiyot obyektlari, shu jumladan, liniyali inshootlar (yo‘llar, kanallar, elektr uzatish liniyalari, quvurlar va shu kabilar), kon-ruda korxonalari xo‘jalik faoliyati hududi bundan mustasno).

198. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini xavfli geologik jarayonlarning rivojlanishi ehtimollari to‘g‘risidagi geologik axborot bilan ta’minlash, ko‘chki xavfi bo‘lgan mintaqalardagi hududlardan oqilona foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berish.

199. Yer osti suvlarining radioaktiv, kimyoviy va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslanishini kuzatish va nazorat qilish.

200. Transchegaraviy hududlarda radioaktiv va zaharli elementlar bilan ifloslanish o‘choqlarini aniqlash va o‘rganishni amalga oshirish.

201. Gidrometeorologiya hamda irrigatsiya xizmatlari bilan birgalikda xavfli zonalarda joylashgan aholini vaqtincha evakuatsiya qilish yoki bosqichma-bosqich xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko‘chirish shart bo‘lgan xo‘jaliklar ro‘yxatini belgilash hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etish.

202. Yangidan qurilayotgan aholi punktlari va obyektlar uchun yer ajratishni tegishlicha kelishish.

203. Xavfli geologik jarayonlar bo‘yicha ma’lumotlar elektron bazasini shakllantirish va ularning ta’siridan ko‘rilgan zararlarni fizik baholash.

204. FVDT funksional quyi tizimining Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

25-bob. Toshkent viloyati Tabiat resurslari boshqarmasining funksiyalari

205. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlar hamda intensiv sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyati joylashgan mintaqalarda ekologik vaziyat ustidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish, uni yaxshilash tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

206. Sanoat chiqindilari to‘plagichlari, chiqindi omborlari, zaharli moddalar ko‘miladigan joylar va boshqalarning joylashishi va ulardan foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

207. Suvdan foydalaniladigan joylarda ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi va sanoat, baliqchilik xo‘jaliklari va boshqa tarmoqlarning chiqaradigan oqovalari, shuningdek, zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga tashlamalari hamda chiqindilarning joylashtirilishi

ustidan monitoring olib borish.

208. Favqulodda vaziyatlar zonasida ochiq suv havzalaridagi suvning ifloslanishi, sanoat obyektlari hamda boshqa obyektlar tomonidan zararli moddalarning atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlanishi va chiqindilarning joylashtirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish.

209. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini ekologik vaziyat, atrof tabiiy muhitga zaharli moddalarning tashlanishi va chiqarib yuborilishi to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

210. FVDT funksional quyi tizimining Atrof tabiiy muhitni muhofaza hamda ekologik xavfsizlik bo‘yicha nazorat-inspeksiya xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

26-bob. Toshkent viloyati O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasining funksiyalari

211. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash hamda ularni shay holatda saqlash.

212. Geologik va gidrometeorologik xavfli uchastkalarda o‘rmonzorlar barpo etilishining oldi olinishini nazorat qilish.

213. O‘rmonlarni yong‘inlardan muhofaza qilish va epifitotiyaga qarshi kurashish.

214. O‘rmon xo‘jaligi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni va prognoz m’lumotlarni Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga taqdim etib borish.

215. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

27-bob. Toshkent viloyati Gidrometeorologiya boshqarmasining funksiyalari

216. Xavfli gidrometeorologik hodisalar prognozini tayyorlash va kuzatish.

217. Sel va qor ko‘chkilariga qarshi tadbirlarni o‘tkazish zarurati bo‘lgan mintaqalar va hududlarni aniqlash.

218. Atrof tabiiy muhit (atmosfera, tuproq va yer usti suvlari)ning ifloslanishi, gidrologik rejim va daryolar qayirlari hamda o‘zanlaridagi toshqinlar xavfi monitoringini tashkil etish va o‘tkazish.

219. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlariga gidrometeorologik axborot taqdim etish, ularni atrof tabiiy muhit ifloslanishining ekstremal yuqori darajalari to‘g‘risida xabardor qilish.

220. Favqulodda vaziyatni bartaraf etishga rahbarlik qiluvchi shaxsni favqulodda vaziyat ro‘y bergan joyga eng yaqin bo‘lgan meteorologik kuzatuv punkti ma’lumotlariga asosan mavjud gidrometeorologik sharoitlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

221. Sel va suv toshqinlari mavjud bo‘lgan hududlardagi aholiga o‘z vaqtida Favqulodda

vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda vaziyat yuzasidan ogohnoma va bildirishnomalar kiritish.

222. FVDT funksional quyi tizimining Tabiiy gidrometeorologik hodisalar yuzaga kelishi va rivojlanishi, atmosfera havosi, tuproq va yuza suvlari ifloslanishi ustidan gidrometeorologik kuzatishlar xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish

28-bob. Toshkent viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasining funksiyalari

223. Turizm xizmatlarini tashkil etishda, turistik obyektlarda, turistlar vaqtincha joylashtiriladigan, ovqatlanadigan va harakatlanadigan joylarda, respublika hududi bo‘ylab harakatlanishda va turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noxush holat (favqulodda vaziyat)larning oldini olish tadbirlarini muvofiqlashtirish va nazoratini amalga oshirish.

224. Turizm obyektlari va yo‘nalishlari, shuningdek, sohada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risidagi axborotlar va prognoz ma’lumotlarni Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga taqdim etib borish.

225. Ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan madaniyat va san’at obyektlarida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong‘in xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish.

226. Madaniyat va istiroxat bog‘larida aholining xavfsizligini ta’minlash, attraksionlar va boshqa qurilmalarning xavfsiz ishlatilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

29-bob. Toshkent viloyati Davlat aktivlarini boshqarish boshqarmasining funksiyalari

227. Favqulodda vaziyatlar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash hamda baholash ishlarini tashkil etish.

228. Fuqaro muhofazasi mol-mulklarini hisobini olib borish, fuqaro muhofazasi obyektlari, inshootlari va mol-mulkini saqlovchi tashkilotlarning egasi, mulkchilik shakli yoki idoraviy bo‘ysunishi o‘zgargan taqdirda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda o‘rnatilgan tartibda topshirish-qabul qilish ishlarini tashkil etish.

229. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga zarur axborotlarni taqdim etish.

30-bob. Toshkent viloyati O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining funksiyalari

230. Iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan o‘simliklar karantini obyektlari (karantin ahamiyatiga ega bo‘lgan zararli organizm) va boshqa zararli organizmlarning viloyat hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish hamda yo‘q qilish.

231. O‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi kurashish, agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish va tuproqni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

232. O‘simliklar kasalliklari keng tarqalishi (epifitotiyalar) bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish.

233. Viloyat hududida zararli chigirtkalar va tut parvonasiga qarshi kurashish tadbirlarini tashkil etish.

234. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini o‘simliklar karantini va agrokimyoviy vaziyat to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash.

235. FVDT funksional quyi tizimining O‘simliklarni himoya qilish va agrokimyoviy nazorat xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

31-bob. Toshkent teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

Toshkent viloyati boshqarmasining funksiyalari

236. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, FVDTning hududiy quyi tizimlari rahbarlari buyurtmanomalari bo‘yicha aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga oid teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

237. Aholining ommaviy axborot vositalari orqali favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabardor qilinishini Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan birgalikda tashkil etish.

238. FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda aholi o‘rtasida favqulodda vaziyat zonasida qolgan odamlarning birinchi navbatdagi harakatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

239. Inqirozli va favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tashabbusi bilan aholiga tezkor va xolis axborot yetkazish maqsadida maxsus axborot tadbirlarini tashkil etishga ko‘maklashadi.

240. Yuqori darajadagi xavfga ega bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va favqulodda vaziyatlarning axborot monitoringini ta’minlash (tabiiy, texnogen, antropogen ofatlar, halokatlar va boshqalar) va bu kabi voqealarga mas’ul tashkilotlar tomonidan tezkorlik bilan munosabat bildirish yuzasidan zarur choralar ko‘radi.

241. Aholining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida muntazam ravishda xabardor qilinishini ta’minlash.

242. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi va Qizil Yarim oy jamiyati bilan birgalikda aholini dastlabki tibbiy o‘zaro va o‘ziga o‘zi yordam ko‘rsatishga o‘qitish bo‘yicha maxsus eshittirishlarni tashkil etish.

32-bob. Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi Toshkent viloyati

hududiy bo‘limining funksiyalari

243. Kimyoviy, portlovchi hamda boshqa yuqori darajada xavfli obyektlarning holatini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish, ularda avariyalar va halokatlar yuzaga kelishi

ehtimolini prognoz qilish.

244. Texnogen avariyalar va halokatlarning oldini olish, radioizotop priborlarini saqlash va ulardan foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazorat qilish.

245. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasini, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlarini sanoat obyektlarida yuzaga kelgan avariyalar va halokatlar, ularning ko‘lamlari, rivojlanishining borishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari hamda favqulodda vaziyatlarni tugatish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

246. Viloyat hududidagi istirohat bog‘lari va boshqa maskanlarda joylashgan attraksionlar hamda boshqa ko‘ngilochar qurilmalardan xavfsiz foydalanish sohasida profilaktika va davlat nazorati tadbirlarini olib borish.

247. FVDT funksional quyi tizimining kon-ruda, kimyo, neft va gazni qayta ishlash sanoatida ishlarning holati va xavfsiz olib borilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

33-bob. Sug‘urta tashkilotlarining funksiyalari 248. Suv toshqini, ko‘chkilar, sel xavfi mavjud bo‘lgan va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda yashaydigan fuqarolarni, ushbu hududlardagi binolar va inshootlarni, qishloq xo‘jaligi ekinlari va hayvonlarini hamda boshqa mol-mulkni sug‘urtalashni ta’minlash.

34-bob. O‘zbekiston Qizil Yarim oy jamiyati Toshkent viloyati tashkilotining funksiyalari 249. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi, FVDTning boshqa funksional quyi tizimlari bilan birgalikda aholini favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish masalalari bo‘yicha tayyorlash.

250. FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlarida sanitariya drujinalarini tuzish, ularni jihozlash va yuklangan vazifalarni bajarishga tayyorlash, tayyorgarlik holatini nazorat qilishda ko‘maklashish.

251. Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi, Sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida sanitariya postlarini tuzish va o‘qitishni tashkil etish.

252. Ichki ishlar boshqarmasi, birinchi navbatda, Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlarini, kursantlar, haydovchilar va yo‘l-transport xizmatlari xodimlarini birinchi yordam ko‘rsatish amaliyotiga shartnoma asosida o‘qitishni tashkil etish.

253. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda aholini birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, o‘ziga o‘zi va o‘zaro yordam berish hamda zarar ko‘rganlarga g‘amxo‘rlik qilishga o‘qitish bo‘yicha maxsus teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etish.

254. Qizil Yarim oy jamiyatining otryadlari va boshqa ko‘ngillilar bo‘linmalarini tashkil etish, o‘qitish, jihozlash hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etish.

255. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun Qizil Yarim

oy jamiyatining eng zarur tovarlar omborlari va zaxiralari tizimini tashkil etish.

35-bob. Toshkent viloyati Avtomobil yo‘llari hududiy boshqarmasining funksiyalari

256. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda avtoyo‘l xizmati tuzilmalarini tashkil etish, ularni kerakli shaxsiy himoya vositalari, maxsus jihoz va texnikalar bilan ta’minlash hamda doimiy shay holatda turishini tashkil etish.

257. Yo‘l va yo‘l inshootlarining texnik holati bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni FVDT qutqaruv tuzilmalari, kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlar mintaqalariga tashish uchun tayyorlash.

258. Fuqaro muhofazasi rejalariga muvofiq yo‘l va yo‘l inshootlarini qurish, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llariga xizmat ko‘rsatish, favqulodda vaziyatlardan zarar ko‘rgan yo‘llarni qayta ta’mirlashni tashkil etish.

259. Tasarrufidagi tashkilotlarning muhandislik va maxsus texnikalarini hisobini yuritish va ularning texnik holati yuzasidan nazorat o‘rnatish.

260. Avtomobil yo‘llari va ko‘priklarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida, ularga xizmat ko‘rsatish va talab darajasida saqlash.

261. Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda avtomobil yo‘llari va ko‘priklarini tiklash uchun xizmat tarkibidagi kuch va vositalarni jalb qilish va bu ishlarga rahbarlik qilish.

262. FVDT boshqaruv organlarini hamda aholini avtomobil yo‘llari va yo‘l inshootlarida favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari,

ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

263. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga zarur axborotlarni taqdim etish.

264. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

265. FVDT funksional quyi tizimining Avtoyo‘l xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

36-bob. “Toshkent mintaqaviy temir yo‘l uzeli” unitar korxonasining funksiyalari

266. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnika vositalari bilan ta’minlash.

267. Temir yo‘l transportlaridan xavfsiz foydalanish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish.

268. Favqulodda vaziyatlarni tugatish va evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan FVDT qutqaruv tuzilmalari, kuch-vositalari, harbiy bo‘linmalar, maxsus texnika va moddiy resurslarni temir yo‘l transportlarida birinchi navbatda tashishni ta’minlash.

269. Yong‘in va avariya-tiklash poyezdlari, ixtisoslashgan va qutqaruv tuzilmalari shaxsiy tarkibining temir yo‘l transportida favqulodda vaziyatlarni tugatishda qatnashishini ta’minlash.

270. Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya tadbirini amalga oshirish uchun evakuatsiya poyezdlarini tashkil etish, shuningdek, ularni evakuatsiya tadbirlarini amalga oshirishga tayyorlashni ta’minlash.

271. Temir yo‘l transportida portlovchi, yong‘in xavfi bo‘lgan yuklar va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalarni tashishda xavfsizlikni ta’minlash.

272. Temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

273. FVDT boshqaruv organlarini, yo‘lovchilar hamda aholini temir yo‘l transportlari va obyektlarida favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi xavfi yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabardor qilish, shuningdek, ularning kutilayotgan oqibatlari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotlar bilan ta’minlash.

274. Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga zarur axborotlarni taqdim etish.

275. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

276. FVDT funksional quyi tizimining temir yo‘l transportida yong‘in, portlash xavfi bo‘lgan yuklar, kimyoviy moddalar va kuchli ta’sir ko‘rsatadigan zaharli moddalar tashilishini nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlikqilish.

37-bob. “Chinobod neft bazasi” va “Kuchlik neft bazasi” MCHJlarning funksiyalari

277. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini tashkil etish, ularni himoya vositalari, maxsus asbob-anjomlar va texnikalar bilan ta’minlash hamda ularni shay holatda saqlash.

278. Xizmatning tuzilmalari, texnika va avtotransport vositalarini doimiy shay holda turishlarini ta’minlash.

279. Viloyat fuqaro muhofazasi boshlig‘ining qaror va farmoyishlariga asosan, favqulodda vaziyatlar hamda harbiy davr uchun kerakli miqdorda neft mahsulotlari zahirasini yaratish va saqlash.

280. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilgan fuqaro muhofazasi tuzilmalari, korxona va tashkilotlar avtotransport vositalari va maxsus texnikalarini o‘rnatilgan tartibda neft mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash.

281. Favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan joylarda ish olib borayotgan avtotransport vositalari va maxsus texnikalarga yoqilg‘i mahsulotlarini o‘z vaqtida yetkazib berish.

282. O‘z vakolatlari va yo‘nalishlari doirasida boshqa fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish.

283. FVDT funksional quyi tizimining Yonilg‘i-moylash materiallari ta’minoti xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish.

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 18-iyuldagi
149-10-212-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish

davlat tizimi hududiy quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda

vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha

FUNKSIYALARI

Tegishli hududda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga rahbarlik qilish. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qarorlar qabul qilish. Shahar va tumanlar Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o‘rinlarda – FVDT) hududiy quyi tizimlarini tashkil etish, faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholini, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni, shuningdek, tizimidagi tashkilotlarning rahbarlari, ishchi va xizmatchilarini tayyorlash tadbirlarini tashkil etish va nazorat qilish. Favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishni tashkil etish hamda tegishli hudud bo‘yicha rejani tasdiqlash. Aholini va hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risidagi axborotni to‘plash hamda almashish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyatlar ro‘y berganligi haqida aholiga o‘z vaqtida xabar berishi va axborot uzatish. Xavfli gidrometeorologik hodisalar va geologik jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish. FVDT xizmatlarining umumiy va maxsus vazifalari hududiy tuzilmalarini, yig‘ma mexanizatsiyalashtirilgan otryadlarni, yig‘ma qutqaruv komandalarini, avtosanitariya otryadlarini tashkil etish va boshqarishga rahbarlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlarning shayligi ustidan nazoratni amalga oshirish. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir tadbirlarni moliyalashtirish. Tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy mansubligidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda ishlash barqarorligini oshirishga ko‘maklashish. Aholini xabardor qilish va aholiga axborot uzatishning maxsus texnik vositalarini o‘rnatish uchun joylar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida efir vaqti ajratilishini tashkil etish va nazorat qilish. Mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda FVDTning hududiy quyi tizimi uchun yuqori tayyorgarlik rejimini yoki favqulodda vaziyat rejimini joriy etish haqida, shuningdek, aholini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilish. Qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, shuningdek, bunday ishlar o‘tkazilishi chog‘ida jamoat tartibi saqlanishini tashkil etishga ko‘maklashish. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish hamda aholini muhofaza qilish uchun barcha hududiy kuchlar va vositalarni jalb etish.

Favqulodda vaziyat zonasida qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlarining (shu jumladan, tezkor harakat

bo‘linmalarining) va maxsus tuzilmalarning doimiy shayligini tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish tadbirlariga volontyorlarni jalb etish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish. Favqulodda vaziyat zonalaridagi zarar ko‘rgan aholi hamda ular joylashtirilgan tumanlarda evakuatsiya qilingan aholini ta’minlash uchun tegishli hududning mahalliy budjeti mablag‘lari hisobiga oziq-ovqat va eng zarur tovarlar yetkazib berilishini tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlar zonalaridagi obyektlar va aholini elektr energiyasi, gaz, yoqilg‘i va ichimlik suv bilan uzluksiz ta’minlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Aholi punktlari va iqtisodiyot obyektlari faoliyatini tiklash ishlarini tashkil

Favqulodda vaziyatlar oqibatida zarar ko‘rgan aholi hayot faoliyatini tiklash, yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha choralar ko‘rish. Tuman, shaharlar hamda iqtisodiyot obyektlarining umumiy va maxsus vazifalar yuklangan hududiy tuzilmalariga rahbarlik qilish. Mahalliy sharoitlarga, favqulodda vaziyatlarning xususiyatiga va shaharlar, tumanlarning moddiy-texnik bazasiga qarab fuqaro muhofazasi boshlig‘i o‘z vakolatlari doirasida FVDTning quyidagi xizmatlarini tashkil etishi hamdavazifalarini belgilashi mumkin:

avtoyo‘l xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yo‘l-ko‘prik ta’minotini tashkil etish va amalga oshirish, yo‘llar va ko‘priklarni ta’mirlash va tiklash;

avtotransport xizmati — aholini joylashtirish va favqulodda vaziyatlar zonalaridan evakuatsiya qilish tadbirlarini amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun kuchlar va vositalarni yetkazib berish, ishchi smenalarini olib kelish (olib ketish), moddiy va tarixiy-madaniy boyliklar, noyob asbob-uskunalar, oziq-ovqat, qurilish materiallarini va boshqa moddiy vositalarni evakuatsiya hududiga olib chiqib ketish;

gaz ta’minoti xizmati — gaz ta’minoti inshootlari va tarmoqlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta’minlash, ularda avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ichimlik suvi ta’minoti xizmati — suv ta’minoti inshootlari va tarmoqlarida avariya-tiklash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, suv manbalarining radioaktiv, kimyoviy va zaharli moddalar hamda bakteriyali vositalar va og‘ir metallar bilan ifloslanish (zararlanish)dan muhofaza qilinishini ta’minlash. Ichimlik suvi sifati va oqova suvlarni tozalash ustidan nazoratni ta’minlash;

veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmati — hayvonlarda yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi (epizootiyalar)ning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarida sanitariya-veterinariya va epizootiyalarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish. Epizootiyalarni tugatish. Rahbariyatga favqulodda vaziyatlar zonasidagi sanitariya-veterinariya holati to‘g‘risida axborot taqdim etish;

o‘simliklarni himoya qilish va agrokimyo nazorati xizmati — epifitotiyalarning oldini olish, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish. O‘simliklarni himoya qilish tadbirlarini amalga oshirish yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi

ishlab chiqarishining barqaror ishlashini ta’minlash. Fitopatologik qidiruv ishlarini, qishloq xo‘jaligi yerlarining radioaktiv va zaharli moddalar bilan ifloslanishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish.

Ekinzorlar, yaylovlar hamda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini zararsizlantirish. Epifitotiyalarni tugatish;

suv xo‘jaligi xizmati — suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlarining barqaror ishlashini va ulardan xavfsiz foydalanishni ta’minlash, ularda avariyalar va halokatlar yuz berishi mumkinligini prognoz qilish. Suv xo‘jaligi obyektlarining ish rejimini yoki ulardan bundan keyin foydalanish rejimini o‘zgartirish zarurligini belgilash, suv omborlaridan suvni avariya yuzasidan chiqarib tashlash. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan suv omborlari va ularga yondosh hududlarda lokal darajadagi aholini favqulodda vaziyat ro‘y berishi xavfi to‘g‘risida yoki favqulodda vaziyat ro‘y berganligi haqida xabar berish va xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish. Toshqinlar, suv bosishlari, sel oqimlaridan himoya qilish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan kompleks chora-tadbirlarni tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish hamda toshqin suvlari va sel oqimlarini avariyasiz o‘tkazib yuborishni ta’minlash;

muhandislik xizmati — tinchlik davrida himoya inshootlari fondi to‘planishi va mavjud bo‘lishi ustidan nazoratni tashkil etish va amalga oshirish, boshlang‘ich hududlarda zararlangan joylar tomonga harakat qilinganda, halokatli suv bosishi zonalarida va ishlar olib boriladigan obyektlarda, yirik yong‘inlarni o‘chirishda, tabiiy ofatlar, yirik avariyalar va halokatlar oqibatlarini tugatishda FVDTning kuchlari harakatlarini muhandislik jihatdan ta’minlash uchun favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga jalb etiladigan tegishli tuzilmalarni tayyorlash va ularning harakat qilishini tashkil etish;

kommunal-texnika xizmatlari — kommunal xo‘jaligi inshootlari va tarmoqlari ishlarining barqarorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish, ulardagi avariyalarni bartaraf etish, halok bo‘lganlarga maxsus ishlov berish, tashish va ommaviy ko‘mish shoxobchalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish;

moddiy-texnika ta’minoti xizmati — evakuatsiya qilinadigan aholini eng zarur buyumlar va anjomlar (kiyim-bosh, poyabzal va shu kabilar) bilan ta’minlashni tashkil etish, tuzilmalarning shaxsiy tarkibini anjomlar va maxsus mkiyim-bosh, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarini ularning barqaror faoliyat ko‘rsatishi va buzilgan ishlab chiqarishni tiklash uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika vositalari va qurilish materiallari bilan ta’minlash;

tibbiy xizmat — aholi va tegishli tuzilmalarning shaxsiy tarkibi sog‘lig‘ini saqlashga, jabrlanganlar va bemorlarga o‘z vaqtida tibbiy yordam berishga yo‘naltirilgan davolash-evakuatsiya, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

sanitariya ishlovini berish va zararsizlantirish xizmati — zararlanish joylaridan chiqqan odamlarga sanitariya jihatidan ishlov berish, ularning kiyim- boshlari va yakka tartibdagi himoyalanish vositalarini zararsizlantirishni tashkil etish va amalga oshirish;

aloqa, xabar berish va axborotlashtirish xizmati — boshqaruv organlarini barqaror va uzluksiz aloqa bilan ta’minlash, aloqa va xabar berishning turg‘un vositalariga foydalanish-texnik jihatdan xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va ularni nazorat qilish, shuningdek, ularni doimiy tayyor holatda saqlash, hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining ko‘rsatmalariga binoan xabar berish signallarini uzatish va qabul qilishni texnik jihatdan ta’minlash;

jamoat tartibini saqlash xizmati — favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazishda jamoat tartibini saqlash;

qo‘riqlash xizmati — favqulodda vaziyatlar zonalarida obyektlar, hududlar, moddiy va madaniy qimmatliklarni, shuningdek, aholi evakuatsiya qilingan joylarni qo‘riqlash;

yong‘in xavfsizligini ta’minlash xizmati — yong‘inlar profilaktikasini o‘tkazish va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, yong‘inlarni o‘chirish, yong‘in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish;

yonilg‘i-moylash materiallari ta’minoti xizmati — favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etiladigan avtotransport vositalari va boshqa texnik vositalarni yonilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlashni tashkil etish, ushbu maqsadlar uchun turg‘un va ko‘chma avtomobil yonilg‘isi quyish shoxobchalaridan foydalanish;

texnik xizmatlar — texnikani texnik jihatdan soz holatda saqlash va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun jalb etiladigan avtotransport vositalarini texnik ta’mirlash, shikastlangan va nosoz texnikani qutqarish ishlari yo‘nalishlari va uchastkalaridan shikastlangan mashinalarni yig‘ma punktlarga va ta’mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish, ta’mirlash korxonalari va tuzilmalarini ehtiyot qismlar va anjomlar bilan ta’minlash hamda ularning zaxirasini shakllantirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat bilan ta’minlashni tashkil etish xizmati — qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda oziq-ovqat zaxirasi g‘amlanishini va muhofaza qilinishini tashkil etish, favqulodda vaziyat zonasidagi aholini hamda jalb etilgan tuzilmalarni oziq-ovqat, issiq ovqat bilan ta’minlash;

boshpanalar va bekinish joylari xizmati — tashkilotlarning muhofaza inshootlari fondini hisobga olish, muhofaza inshootlarining bekinadigan odamlarni qabul qilishga doimiy tayyorligini nazorat qilish, muhofaza inshootlari imoratlarining to‘g‘ri saqlanishi, muhofaza konstruksiyalari, qurilmalari va muhandislik-texnik asbob-uskunalari saqlanishi, ulardan iqtisodiyot ehtiyojlari va aholiga xizmat ko‘rsatish uchun foydalanilishini tizimli nazorat qilish. Qurilishi tugallangan muhofaza inshootlarini qabul qilishda qatnashish. Muhofaza inshootlari fondini jamlash rejalarini ishlab chiqish va ularga tuzatish kiritish, boshpana va bekinish joylariga xizmat ko‘rsatish bo‘linmalarini tashkil etish va tayyorlash;

energetika xizmati — favqulodda vaziyatlar sharoitlarida energiya obyektlarining barqaror ishlashini ta’minlash va ulardagi avariyalarni bartaraf etish. Favqulodda vaziyat zonalarida

qutqaruv ishlarini olib borishda ishtirok etish.

1. Favqulodda vaziyatlarda nobud bo‘lgan uy hayvonlari jasadlarini yig‘ib olish va utilizatsiya qilish xizmati (tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari hamda «Toza hudud» DUKlari negizida) tashkil etiladi.

2. Zaruratga ko‘ra va tegishli kuchlar mavjud bo‘lganda FVDTning boshqa xizmatlari, shu jumladan, avariya-texnik, radiatsiyaviy va kimyoviy himoya, niqoblanish, axborot bilan ta’minlash xizmatlari ham tashkil etilishi mumkin.

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 18-iyuldagi
149-10-212-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Toshkent tumani FVDT funksional quyi tizimi xizmatlarining RO‘YXATI

№	Xizmat nomi	Xizmatni tashkil etuvchi tashkilot nomi
1.	Yong‘in xavfsizligini ta’minlash xizmati	**Favqulodda vaziyatlar bo'limi**
2.	Qo‘riqlash xizmati	Milliy gvardiya Toshkent tumani bo’limi
3.	Jamoat tartibini saqlash xizmati	Milliy gvardiya Toshkent tumani bo’limi
4.	Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati	**IIBB Yo‘l harakati xavfsizligi bo’limi**
5.	Tibbiy yordam xizmati	**Sog‘liqni saqlash bo’limi**
6.	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo’limi
7.	Suv xo‘jaligi xizmati	Irigasiya bo’limi
8.	Avtoyo‘l xizmati	Yo’llardan foydalaniysh unitar korxonasi
9.	Shaharlar, aholi punktlari va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhandislikka doir muhofaza qilish xizmati	**Qurilish va kommunal xo‘jaligi bo’limi**
10.	Ichimlik suv ta’minoti xizmati	**“Toshkent suv ta’minot” MCHJ tuman bo’limi**
11.	Energetika xizmati	**“Toshkent hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” tuman bo’limi**
12.	Gaz ta’minoti xizmati	**“Tumangaz taminoti”**
13.	Aloqa va xabar berish xizmati	**“O‘zbektelekom” AK Tuman filiali**
14.	Atrof tabiiy muhitni muhofaza hamda ekologik xavfsizlik bo‘yicha nazorat-inspeksiya xizmati	**Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo’limi**
15.	Veterinariya nazorati va hayvonlarni muhofaza qilish xizmati	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo’limi**